

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK
TARJIMONLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-METODOLOGIK
ASOSLAR**

**НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕН-
СТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬ-
НОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕРЕВОДЧИКОВ НА
ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА**

**SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF
IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE
PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TRANSLATORS
BASED ON THE ACMEOLOGICAL APPROACH**

MAMARAJABOV BOTIR BAXODIR O‘G‘LI
Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi, PhD.

Annotatsiya. Mazkur maqolada akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak tarjimonlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari yoritilgan. Unda tarjimon shaxsining kasbiy shakllanishi, lingvistik, kommunikativ va madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, lingvomadaniyatlararo hamda akmeologik yondashuvlar integratsiyasi asosida bo‘lajak mutaxassislarning professional tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: akmeologik yondashuv, bo‘lajak tarjimonlar, kasbiy kompetentlik, integral sifat, kasbiy muhim xislatlar, professional, ontogenez, sotsiogenez.

Аннотация. В данной статье освещаются научно-методологические основы развития профессиональной компетентности будущих переводчиков на основе акмеологического подхода. Анализируются процессы профессионального становления личности переводчика, развития его лингвистических, коммуникативных и межкультурных компетенций. Также обоснованы возможности совершенствования профессиональной подготовки будущих специалистов на основе интеграции лингвокультурологического и акмеологического подходов.

Ключевые слова: акмеологический подход, будущие переводчики, профессиональная компетентность, интегральное качество, профессионально важные качества, профессионал, онтогенез, социогенез.

Abstract. This article highlights the scientific and methodological foundations of developing the professional competence of future translators based on the acmeological approach. It analyzes the processes of professional development of a translator's personality, alongside the enhancement of their linguistic, communicative, and intercultural communication competences. Furthermore, the possibilities of improving the professional training of future specialists through the integration of linguocultural and acmeological approaches are substantiated.

Keywords: acmeological approach, future translators, professional competence, integral quality, professionally important qualities, professional, ontogenesis, sociogenesis.

Kirish

Hozirgi dunyoda kechayotgan integratsiya jarayonlari, xalqaro hamkorlik sohalari kengayishi tubdan yangi, ko'p qirrali ijtimoiy-madaniy makonni shakllanishiga olib kelmoqda. Bu sharoitda barcha sohalarda madaniyatlararo kommunikatsiyani ta'minlash birinchi darajali masalaga aylanmoqda va bu masalani professional darajada chet tillarni egallagan mutaxassis-tarjimonlarsiz hal etish mumkin emas. Shu munosabat hozirgi vaqtda akmeologik yondashuvi asosida bo'lajak tarjimonlarni tayyorlash masalalari alohida dolzarb bo'lib qolmoqda. E.Z.Ochilovning e'tiroficha, tarjimon amalga oshiradigan tarjimaning bosh xossasi uning boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon, so'z san'ati ekanligidadir.

Bugungi globallashuv va axborot almashinuvi jadallashgan davrda tarjimonlik faoliyati xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, madaniyatlararo muloqotni ta'minlash hamda turli xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Jahon miqyosida integratsion jarayonlarning kengayishi natijasida professional tarjimon mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu sababli oliy ta'lim tizimida bo'lajak tarjimonlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlash, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda ijodiy va kommunikativ salohiyatini yuksaltirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, chet tillarini o'qitish sifatini oshirish, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tarjimonlarni tayyorlash jarayonida nafaqat til bilimlarini shakllantirish, balki ularning kasbiy muloqotga kirisha olish, madaniyatlararo kommunikatsiyani samarali tashkil etish, turli kommunikativ vaziyatlarda

mustaqil qaror qabul qilish hamda ijodiy faoliyat yurita olish kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa tarjimon tayyorlash metodikasiga yangicha pedagogik yondashuvlarni tatbiq etishni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan akmeologik yondashuv bo'lajak tarjimonlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda samarali metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi. Akmeologiya insonning kasbiy va shaxsiy kamolot cho'qqisiga erishish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatida mutaxassisning professional rivojlanish imkoniyatlarini ochib beradi. Mazkur yondashuv tarjimon shaxsining kasbiy jihatdan o'zini namoyon qilishi, ijodiy tafakkurini rivojlantirishi, kommunikativ salohiyatini oshirishi hamda o'z kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tarjimonlik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra murakkab psixologik, lingvistik va madaniy jarayon bo'lib, unda til birliklarini bir tildan ikkinchi tilga oddiy ko'chirish emas, balki ma'no, uslub, milliy mentalitet va madaniy xususiyatlarni qayta yaratish muhim o'rin tutadi. Shu sababli bo'lajak tarjimonlarni tayyorlashda lingvistik bilimlar bilan bir qatorda kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo muloqot madaniyati, auditiv ko'nikmalar, strategik fikrlash va kasbiy moslashuvchanlik kabi sifatlarni rivojlantirish talab etiladi.

Adabiyotlar tahlili

O'zbek tarjimashunosligida badiiy tarjimaning qat'ori nazariy masalalari, jumladan, milliylik, badiiylikning tarjimada qayta yaratilishi, ekvivalentlik va lisoniy adekvatlik kabi muammoli masalalar Sh.Abdullayev, N.Vladimirova, M.Javbo'riyev, Sh.Isaqova, N.Isamuxamedova, G'.Salomov, N.Komilov, S.Mirzaqulov, I.G'afurov, N.O'rmonova, Z.Sodiqov, R.Shirnova, Z.Isomid-dinov, E.Ochilov, Z.Xudoyberganovanning ilmiy ishlarining tadqiqot obekti bo'lgan. N.D.Galskova,

V.N. Komissarov, I.I. Xaleyevafikricha, bu toifadagi mutaxassislarni o'qitishning yakuniy maqsadi ularda ikkilamchi til shaxsi xislatlarini rivojlantirishdan iborat, bu esa ularni madaniyatlararo kommunikatsiyaning samarali ishtirokchilariga aylantiradi. Buning uchun bo'lajak tarjimonlar ongida chet tili verbal kodini egallash va undan muloqot jarayonida foydalanish bilan birgalikda, mazkur til egalariga, ma'lum sotsium vakillari sifatida xos "dunyo ko'rinishi" shakllanadi [6; 14b.].

Bo'lajak tarjimonlarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosi pedagogika, tarjimashunoslik va psixolingvistika sohalarida keng o'rganilgan. Xususan, V.N. Komissarov tarjima nazariyasini o'rganishda tarjima jarayonini lingvistik va kommunikativ faoliyat sifatida tahlil qilib, tarjimon kompetentligining shakllanishida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarning muhimligini ta'kidlaydi [4; 54–56-b.]. Uning fikricha, tarjima faqat til birliklarini almashtirish emas, balki murakkab madaniy va semantik jarayon hisoblanadi.

V.I. Seliverstov va boshqa logopedik hamda psixolingvistik tadqiqotlarda nutqiy faoliyatning shakllanishi va kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanishi shaxsning kasbiy tayyorgarligiga bevosita ta'sir qilishi asoslab berilgan [1; 12–15-b.]. Bu esa tarjimonlik faoliyatida nutqiy mexanizmlarning muhimligini ko'rsatadi.

Akmeologik yondashuv asoslarini ishlab chiqqan A.A. Derkach tadqiqotlarida shaxsning kasbiy kamoloti, uning professional rivojlanish bosqichlari hamda "akme" darajasiga erishish mexanizmlari yoritilgan [2; 18–22-b.]. Ushbu yondashuv bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

D. Hymes tomonidan kiritilgan "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi esa tilni real kommunikativ vaziyatlarda

qo'llash qobiliyatini ifodalaydi va bu tarjimon tayyorlashda asosiy nazariy konsepsiyalardan biri hisoblanadi [3; 30-b.]. Keyinchalik M. Canale va M. Swain ushbu konsepsiyani rivojlantirib, kommunikativ kompetensiyani lingvistik, sotsiologik va strategik komponentlarga ajratgan.

Shuningdek, N.D. Galskova, I.I. Xaleeva va V.N. Komissarov kabi olimlar tarjimon tayyorlash jarayonida ikkilamchi til shaxsini shakllantirish zarurligini ta'kidlab, bu jarayon madaniyatlararo kommunikatsiya bilan uzviy bog'liqligini asoslab berganlar [6; 14-b.].

O'zbek tadqiqotchilaridan E. Ochilov tarjimoni ijodiy jarayon sifatida talqin qilib, unda badiiylik, milliylik va estetik qiymatni qayta yaratish muhimligini ko'rsatadi [1; 13–14-b.]. Bu yondashuv tarjimonlik faoliyatining faqat lingvistik emas, balki ijodiy jihatini ham yoritadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarjimonlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosi turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilgan bo'lsa-da, akmeologik yondashuv asosida uning tizimli va integral shaklda tadqiq etilishi zamonaviy pedagogik dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Pedagogik nazariya va amaliyotda akmeologik yondashuv asosida bo'lajak tarjimonlarni kasbiy muloqot kompetentligini shakllanishi davriylash bo'yicha uch bosqichi tasniflandi [6; 15b.]: Birinchi bosqichda (XX asrning 60-70 yillari), chet tillarga o'qitish nazariyasida lingvokommunikativ kompetentlik va kommunikativ kompetentlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda shaxsda ona va chet tillarda samarali kommunikatsiya qilishni ta'minlovchi qobiliyatlarni rivojlantirish zarurati ta'kidlanadi [6; 15b.]. Ikkinchi bosqichda (XX asrning 80-90 yillari) chet tillarni o'qitishining kommunikativ usuli faol joriy etilishi chet tilda muloqotning lingvokommunikativ komponentini muntazam ravishda o'rganishni ta'minladi,

oliy ta'lim tizimida lingvokommunikativ kompetentlikni shakllantirish jarayonining ayrim jihatlarini ishlab chiqish boshlandi, bu jarayon bo'lajak mutaxassisni kasbiy faoliyati xususiyatlarini inobatga olinmagan holda amalga oshirildi. Uchinchi bosqichda (XX asrning 90 yillar oxiridan shu kunga qadar) kasbiy muloqot kompetentsiyasini rivojlantirish ilmiy-nazariy ishlarning tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq etilishi bir qator nazariy-uslubiy manbalarni yaratishga olib keldi. E.Z.Ochilov va N.Xodjayeva ta'kidlashicha, "Tarjimashunoslik problematikasida quyidagi munosabatlar haqida gap boradi[1; 13-14b.]:

Aslnusxabilantarjimatillario'rtasidagi munosabat (bu yerda qiyosiy tilshunoslik erishgan yutuqlardan foydalaniladi).

Asl nusxa bilan tarjima o'rtasidagi mazmun va shakl munosabati (boshqa tillardagi formalarning estetik funksiyalarini aks ettirish)—bu yerda adabiyotshunoslik, qiyosiy stilistika va poetika yutuqlaridan foydalaniladi.

Umuman, asl nusxa bilan tarjimaning badiiy qimmati o'rtasidagi munosabat—bu yerda adabiy tanqid metodlari qo'l keladi.

"Lingvistik kompetensiya" atamasi N.Xomskiy tomonidan kiritilgan, u bu atama mazmunini ona tili yoki o'zga tilda til faoliyatini bajarishga zarur bo'lgan qobiliyat deb tushungan. Buning uchun muloqotning kompetentli ishtirokchisi quyidagilarga qodir bo'lishi kerak, deb ta'kidlagan: modellar bo'yicha gaplarni tuzish va tushunish; bildirilgan fikrlar bo'yicha o'z munosabatini bildirish, ikki fikr ma'nosida rasmiy o'xshashlik va farqlarni ko'ra bilish faoliyati[4. -54-56b.].

Til nazariyasi, transformatsiya grammatikasida "kompetensiya" atamasini ishlatish uning lingvistik jihatli faol o'rganishni ta'minladi. Biroq, XX asrning 60-chi yillariga kelib, N.Xomskiyning nuqtai nazaridan ijtimoiy lingvistlar L.Tayer, R.Uayt, D.Xayms tomonidan tanqid qilindi,

hamda ular tomondan "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi kiritildi[5]. Shu vaqtdan boshlab xorijiy lingvistika va tillarni o'qitish nazariyasida "kommunikativ kompetensiya" atamasi keng qo'llanib boshlandi. Faqat ideallashtirilgan holatda foydalanish kompetensiyaning bevosita aks ettirilishiga e'tibor qaratgan. L.Tayer vaqt o'tgach, «kommunikativ kompetentlik» tushunchasi odamning tafakkuri, qobiliyati va ko'nikmalari bilan bog'liq kommunikativ kompetensiyani "yashirin", potensial dolzarb ifodalanishini belgilash uchun foydalanilgan, deb e'tirof etgan. Shu bilan birga, bu davrdagi asarlarda kompetentlikning lingvistik va kommunikativ jihatlarini integralashtirilgan tarzda o'rganish tendensiyasi shakllandi. Masalan, L.Tayerning tadqiqotida kommunikatsiyani muvaffaqiyatligi uning ishtirokchilarida strategik va taktik turlarga ajratiladigan kommunikativ qobiliyatlar mavjudligiga bog'likligini ta'kidlagan[4. -34-39b.]. Strategik turga olim muloqotni tushunishga yordam beradigan qobiliyatlarni, taktik turga esa – nutqiy faoliyat mahsuldorligi ta'minlovchi nutqiy ko'nikma va bilishlarni kiritgan. Biroq, bu qobiliyatlarni samarali kommunikatsiya uchun muhimligini ta'kidlab, L.Tayer ularni shakllantirish muammosini ko'rib chiqmagan. Bo'lajak tarjimonlar kasbiy muloqot topishining birinchi bosqichiga kompetentligini shakllantirish muammosi tashkiliga yakun yasab, ta'kidlaymizki, uning rivojlanishi "kompetensiya" tushunchasining til nazariyasi va chet tillarga o'qitish metodikasi umumiy mazmuni ma'nosida kelib chiqqan. Bu kommunikativ kompetensiyani har xil turdagi kompetensiyadan iborat murakkab tuzilma sifatida ko'rish va uning tarkibiy qismlarini o'rganishni boshlashga imkon berdi. Mazkur bosqichda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari o'rtasidagi bugun ko'rib chiqilayotgan farqlar asoslandi. Bo'lajak tarjimonlar kasbiy muloqot kompetentligini shakllantirish g'oyasi

maxsus tadqiqot predmeti bo'lmagan.

Bo'lajak tarjimonlar kasbiy muloqot kompetentligini shakllantirish muammosi tashkil topishining ikkinchi bosqichi nafaqat chet tillarni o'qitishning nazariyasi va amaliyotida, balki boshqaruvda, ijtimoiy psixologiyada, pedagogikada foydalanib boshlanadigan kompetensiya va kompetentlik tushunchalari doirasini kengayishi bilan tavsiflanadi. Dj. Raven asarlarida kompetentlikning to'liq talqinini berishga, uning tuzilmasini aniqlashga harakat qilingan, chunki bu hodisa "ko'pchiligi bir-biriga nisbatan bog'liq bo'lmagan ko'p sonli komponentlardan iborat" Mualliflar tomonidan kompetentlikni uchdan tortib o'ttiz yettidagacha turlari ajratilgan, shu bilan birga ularning barchasi kommunikativ bo'lishi shart[2;67-69b.]. Shu vaqtda chet tillarni o'qitishning nazariyasi va amaliyotida muloqot jarayoni nafaqat axborotni uzatish va qabul qilish sifatida, balki sheriklar o'rtasidagi munosabatlarni tartib solish deb ko'rilgan. Shu munosabat kommunikativ kompetensiyani rivojlanishi, N.I.Gez, I.A.Zimnyaya, G.A.Kitaygorodsk aya A.A.Leontevva boshqalarning fikricha, faqat lingvistik jihat, ya'ni til vositalarni bilish va ulardan aniq til qonunlariga muvofiq foydalanish, bilan cheklanishi mumkin emas. XX asrning 70-chi va, ayniqsa, 80-chi yillarida chet tillarni o'qitish jarayoniga kommunikativ usulni faol joriy etilishi U.Litllvud, R.Olayt, Ye.I.Passov, G.Uidson, E.P.Shubin o'zga tilda muloqotning lingvokommunikativ jihatini tizimli o'rganishni ta'minladi. G.V.Kolshanskiy, Ye.I.Passov, M.O.Fayenova ishlarida lingvokommunikativ kompetentlik muloqotning maqsadlari, sohalari, vaziyatlariga mos nutqiy xulqning o'zga va o'z dasturlari vujudga kelishiga zarur bo'lgan verbal va noverbal vositalari sohasidagi bilimlar, qobiliyatlar va ko'nikmalar yig'indisi deb tushuniladi.

Tadqiq qilinayotgan kasbiy muloqot kompetentlikka bilimlar, qobiliyatlar va

ko'nikmalardan iborat murakkab tuzilmasi sifatida qarab, olimlar bo'lajak kasbiy faoliyat xususiyatlarini inobatga olmagan holda talabalarda uni shakllanish jarayonini alohida jihatlarini ishlab chiqishgan.

Ilk bor 1972 yilda kommunikativ kompetensiya atamasi amerikalik tilshunos D.Hymes kommunikativ kompetensiya atamasini qo'llagan. Amerikalik tilshunos D.Hymes ta'kidlashicha, ona tilida fikrni tushunish va hamda unga axboriy va ijtimoiy mazmuni berish qoidalarini qo'llash kommunikativ kompetensiya shakllangaligini bildiradi. Ikkinchi tilni o'rganishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalasi 1980 yillarda M.Canale va M.Swaine tomonidan tadqiq qilindi[3; 30b.]. XX asrning 80-chi yillarida nafaqat kommunikativ kompetentligini o'zi ko'rib chiqilgan, balki uni shakllantirish bo'yicha treninglarning maxsus shakllari taklif etilgan ishlar paydo bo'ldi. E'tiborga loyiq tarafi shundaki, bu davrdagi xorijiy va Rossiya olimlarining asarlarida kompetentlikni ta'riflashda "tayyorlik", "qobiliyat" kabi tushunchalar keng foydalanilgan, 90-chi yillar boshiga kelib esa uni mutaxassis shaxsi xislati sifatida talqin qilinib harqalgan. Shu munosabat tadqiqotchilar N.V.Kuzmina, A.K.Markova, L.A.Petrovskaya faoliyatning turli sohalarida kompetentlikning har xil turlarini ajrata boshlashdi va uni shakllanishini yakuniy natija sifatida ko'rib boshlashdi[2;19b.]. Ikkinchi bosqich tahlili ko'rsatishicha, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari boshqaruv, ijtimoiy psixologiya, pedagogika sohasida keng doirada tadqiq qilingan. Mazkur holat nafaqat kompetensiya va kompetentlik tavsifini o'rganish, uni ta'limni yakuniy natijasi sifatida ko'rishga olib keldi. Kasbiy muloqot kompetentlikni shakllantirish jarayoni ayrim jihatlarini tizimli ravishda o'rganish boshlandi, biroq, bu o'rganish bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyati xususiyatlarini inobatga olmagan holda amalga oshirildi. Bo'lajak tarjimonlar kasbiy muloqot

kompetentligini shakllantirish muammosi tashkil topishining uchinchi bosqichi kompetentlik yondashuvi asosida ta'lim isloh qilish sharoitida o'tadi. Kompetentli yondashuv – bu “e'tiborni ta'lim natijasiga qaratadigan, shuningdek, natija sifatida o'zlashtirilgan ma'lumotlar yig'indisi emas, balki insonning turli muammoli vaziyatlarda harakat qilishi qobiliyati” yondashuvi sifatida o'rganildi.

Ta'kidlash joizki, mazkur bosqichda kompetentlik muammosini ishlab chiqishga Ye.P.Artamonova, Yu.V.Vardanyan, A.M.Kochnev, S.G.Molchanov, I.G.Zaxarova, A.Xutorskoy, A.Qo'ysinov, N.A.Muslimov, B.X.Xadjayev salmoqli ulush qo'shishgan. Ularning ishlarida mutaxassisning, xususan, o'qituvchining kasbiy kompetentligi har tomonlama ko'rib chiqilgan va bu kompetentlikda ikki tuzilmaosti qismlar ajratilgan: faoliyatli va kommunikativ. Bu lingvokommunikativ kompetentlikni shakllantirish muammosiga alohida qiziqishni ta'minladi, undan tashqari, YUNESKO, Yevropa Kengashi, Yevropa ta'lim jamg'armasi tomonidan bu muammo tayanch muammolar qatoriga kiritilgan. Shu munosabat oxirgi yillarda mutaxassislar kommunikativkompetentligi va uning tarkibiy qismlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan ko'p sonli ishlar paydo bo'ldi. Biroq, kommunikativ kompetentligining hamma komponentlariga bir xil e'tibor qaratilmadi. Asosan tadqiqotlarda muloqotning ijtimoiy va madaniy ko'rsatkichlar o'rganilgan. Shuning uchun tadqiqotlarning katta qismi ijtimoiy-madaniyva madaniyatlararo kompetentlik tadqiqiga bag'ishlangan. Bu tadqiqotlarning ajralib turadigan xususiyati olimlarning nafaqat “kommunikativ kompetentlik” tushunchani, uning mazmuni, tuzilmasini aniqlashtirishga, balki uning samarali shakllantirish tizimini ishlab chiqishga intilishlari kuzatildi.

K.J.Risqulova fikricha, ikkinchi til egalarini kommunikativ kompetensiyasini

belgilovchi yana muhim bir sifatbu audit-tinglash qobiliyatidir[1; 45b.]. Yaxshi sezgi, eshituv apparatining sog'lomligi, diqqat barqarorligi, tezkor xotiraning yetarli hajmi, asab tizimi xossalari, axborotni to'liq yetkazilishi audit jarayonini yaxshilanishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Demak, nutqning psixosemantik tuzilishi, uning lingvistik va paralingvistik jihatlarni tadqiqi etilishi ikkichi til egasining kommunikativ kompetentligini asosiy va muhim sharti hisoblanadi[1; 45b.]. Shu bilan birga, ishlarning aksariyatida ta'kidlanadiki, tarjimonning kasbiy muloqot kompetentligi qator xususiy jihatlarga ega va maxsus ishlab chiqilgan shakllantirish tizimni talab qiladi. Biroq, tahlil ko'rsatishicha, bo'lajak tarjimonlarni tayyorlash amaliyotida avvaldagidek o'zga tilning rasmiy jihatlarni o'zlashtirishga mo'ljallangan texnologiyalar faol foydalanilmoqda. Binobarin, negizida mahsuldor kommunikatsiyaga qodir ikkinchi til egasi shaxsning rivojlanishi bo'lgan lingvomadaniyatlararo yondashuv tizimli ravishda qo'llanilmaydi. Shu o'rinda, dunyo ilmiy hamjamiyati tomonidan kasbiy muloqot kompetentlikni “integral ijtimoiy-shaxsiy-xulqiy fenomeni sifatida”, tan olinishi, “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarni kompleks tarzda o'rganish, Akmeologik yondashuvi asosida bo'lajak tarjimonlar kasbiy muloqot kompetentlikni shakllantirish muammosini nazariy va amaliy hal qilish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilishini ta'kidlashimiz joiz.

Xulosa

Bo'lajak tarjimonlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bugungi globallashuv sharoitida nafaqat lingvistik tayyorgarlik, balki keng qamrovli kommunikativ, madaniyatlararo va shaxsiy-professional sifatlarni shakllantirishni talab etadi. Tarjimonlik faoliyati murakkab ijodiy jarayon sifatida til birliklarini oddiy almashtirishdan iborat emas, balki mazmun, uslub, milliy-madaniy xususiyatlar va kommunikativ vaziyatni to'liq anglash

hamda qayta yaratish jarayoni ekanligi bilan ajralib turadi. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari evolyutsion rivojlanish jarayonida lingvistik yondashuvdan kommunikativ va integrativ yondashuvga o'tgan. Bu esa tarjimon shaxsini shakllantirishda nafaqat til bilimlari, balki strategik fikrlash, madaniyatlararo moslashuv, auditiv idrok, psixologik tayyorgarlik va ijodiy yondashuv kabi komponentlarning ham muhimligini tasdiqlaydi. Akmeologik yondashuv esa bo'lajak tarjimonlarning kasbiy kamolotga erishish jarayonini bosqichma-bosqich rivojlantirish, ularning professional salohiyatini maksimal darajada namoyon etish

hamda kasbiy yetuklik cho'qqisiga erishishini ta'minlovchi samarali metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, kasbiy refleksiya va ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bo'lajak tarjimonlarni tayyorlash tizimida akmeologik yondashuvni qo'llash ularning kasbiy kompetentligini kompleks rivojlantirish, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash hamda xalqaro kommunikatsiya jarayonlarida samarali ishtirok etishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. B. B. Mamarajabov Bo'lajak tarjimonlarning kasbiy muloqot kompetensiyasini lingvomadaniyatshunoslik yondashuvi asosida rivojlantirish: ped. fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. – T.: TDRU, 2022. – 32b.
2. Деркач, А.А. Методолого-прикладные основы акмеологических исследований / А.А. Деркач. - М., 2000.
3. Комиссаров, В.Н. Переводоведение в XX веке : некоторые итоги / В.Н. Комиссаров // Тетради переводчика : науч.-техн. сб. - М., 2009. - Вып. № 24.
4. Комиссаров, В.Н. Теоретические основы методики обучения переводу / В.Н. Комиссаров. - М., 1997.
5. Робинсон, Д. Как стать переводчиком : введение в теорию и практику перевода : пер. с англ. / Д. Робинсон. - М.: КУДИЦ-ОБРАЗ, 2005. - 304 с.
6. Самойленко, Г.А. Методика обучения устному переводу : дис. ... канд. пед. наук / Г.А. Самойленко. - Липецк, 2018.